ISSN 2010-6246

ILM SARCHASHMALARI

ILMIY-NAZARIY, METODIK JURNAL

Science Top Sources

Scientific-theoretical, methodical journal

2026.1

www.ilmsarchashmalari.uz

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ILM SARCHASHMALARI

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

1-son (yanvar 2026)

Ilmiy-nazariy, metodik jurnal
2001-yildan nashr qilina boshlagan

Urganch – 2026

Metodik ta'minot. Metodik ta'minot dars jarayonini rejalashtirish, interaktiv metodlarni qo'llash va o'quv samaradorligini oshirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Metodik qo'llanmalar va elektron dars rejalarining samarali ishlatilishi o'quvchilarning bilim egallash jarayonini soddalashtiradi.

Dasturiy ta'minot: raqamli platformalar, vizual dasturlash muhiti va onlayn test tizimlarini o'z ichiga oladi. Bu vositalar yordamida o'quv jarayoni amaliy, interaktiv va qiziqarli shaklda tashkil etiladi. Masalan, Scratch va Code.org orqali algoritmik fikrlash ko'nikmalari shakllantiriladi, Tinkercad platformasi esa virtual laboratoriyalar orqali eksperimentlar o'tkazishga imkon yaratadi.

Elektron resurslar: o'quvchilarga mustaqil o'rganish imkoniyatini beradi. Bu resurslar videodarslar, simulatsiyalar va interaktiv darsliklarni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, raqamli resurslar o'quv materiallarini har bir o'quvchining individual darajasiga moslashtirishga yordam beradi.

Pedagogik texnologiyalar :o'quv jarayonini optimallashtirish va interaktiv qilishga xizmat qiladi. Masalan, blended learning (aralash ta'lim), flipped classroom (teskari sinf) va gamifikatsiya usullari ta'lim jarayonini qiziqarli va samarali qiladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Raqamli ta'lim sharoitida metodik va dasturiy ta'minotni takomillashtirish ta'lim jarayonini sifatli va interaktiv qilishga yordam beradi. Tadqiqot natijalari elektron resurslar, dasturiy vositalar va pedagogik texnologiyalarni uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatini ko'rsatadi. Ushbu yondashuv informatika o'qituvchilari, metodistlar va raqamli ta'lim sohasidagi mutaxassislar uchun amaliy va nazariy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

(1). Рахимов А., Ходжаев Б. Рақамли педагогика асослари. Тошкент, 2021, 45–47-betlar.

(2). Абдуллаев А.А. Ахборот технологиялари ва таълим. Тошкент, 2020, UNESCO, 45–73-betlar.

(3). Digital Education Transformation. Paris, 2019.

(4). Беспалько В.П. Педагогические технологии. Москва, 2018, с. 134–140.

(5). UNESCO. (2022). Digital Learning in Schools. Paris, UNESCO, p. 96–102.

(6). Nazir T., Ahmed S. (2021). Interactive and adaptive learning systems. Journal of Educational Technology, 15(2), p. 45–59.

(7). Moodle.org. Moodle Documentation: Using Moodle in Schools. O'rgatish metodikasi. Toshkent, "Ta'lim" nashriyoti, 105–112-betlar.

Nafasov Izzatbek Shernafasovich (Urganch Innovatsion universiteti katta o'qituvchisi; nafasovizzatbek@gmail.con)

TA'LIM 1.0 – TA'LIM 4.0 VA UNING RIVOJLANISH GENEZISI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Ta'lim 1.0 – 4.0 tizimlarida qo'llaniladigan asosiy vositalar va texnologiyalar tahlil qilingan. Tadqiqot obyektining To'rtinchi sanoat bosqichi (Industry 4.0) bilan o'zaro bog'liqligi yoritildi hamda Ta'lim 4.0 konsepsiyasidan foydalanishning mavjud imkoniyatlari va muammolari baholandi..*

Kalit so'zlar: *Ta'lim 1.0–4.0, elektron ta'limning genezisi, xyutagogik, konnektivistik, andragogik, masofaviy ta'lim, sun'iy intellekt.*

ОБРАЗОВАНИЕ 1.0 – ОБРАЗОВАНИЕ 4.0 И ЕГО ГЕНЕЗИС РАЗВИТИЯ

Аннотация. *В данной статье проанализированы основные инструменты и технологии, используемые в системах Образование 1.0–4.0. Рассмотрена взаимосвязь объекта исследования с Четвертой промышленной революцией (Industry 4.0), а также оценены существующие возможности и проблемы применения концепции Образование 4.0.*

Ключевые слова: *Образование 1.0–4.0, генезис электронного обучения, хьютагогика, коннективизм, андрагогика, дистанционное обучение, искусственный интеллект.*

EDUCATION 1.0 – EDUCATION 4.0 AND ITS DEVELOPMENTAL GENESIS

Annotation. *This article analyzes the main tools and technologies used in Education 1.0 – 4.0 systems. The study highlights the interconnection of the research subject with the Fourth Industrial Revolution (Industry 4.0) and evaluates the current opportunities and challenges of applying the Education 4.0 concept.*

Keywords: *Education 1.0–4.0, genesis of e-learning, heutagogy, connectivism, andragogy, distance learning, artificial intelligence.*

Kirish. Genezis – bu hodisa yoki jarayonning kelib chiqishi, paydo bo'lishi, shakllanishi hamda muayyan holat yoki ko'rinishga yetaklovchi keyingi rivojlanish bosqichidir. Dastlab, "genezis" tushunchasi

falsafiy mazmunga ega bo‘lib, mavjudot, tabiat, Xudo va koinotning kelib chiqishini ifodalashda qo‘llanilgan. Keyinchalik esa bu atama metodologik-ilmiy tushuncha sifatida biologiya, psixologiya, sotsiologiya kabi fanlarda bilimlarning shakllanishi va qo‘llanilish jarayonlarini, shuningdek, tadqiq etilayotgan obyektlarning evolutsion hamda dinamik rivojlanish jarayonlarini tahlil qilishda qo‘llanila boshlagan. Shu bilan birga, genezis tushunchasining ilmiy qo‘llanilishida asosiy metod sifatida hodisa va obyektlarning ijobiy hamda salbiy xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan tuzilma-funksional tahlil tamoyili yotadi [1].

Pedagogik tadqiqotlarda genezis tushunchasi oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini takomillashtirish bo‘yicha tahlillarda, xususan, fan mazmunining mantiqan strukturalashtirilgan asosida qurilgan muammoli o‘qitish tizimini o‘rganishda qo‘llaniladi. Bu jarayon talabalarning bilishga bo‘lgan qiziqishini faollashtirish maqsadida ularning ijodiy faoliyatidan foydalanish g‘oyasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu esa muammoli vazifalarni qo‘yish orqali amalga oshiriladi.

Zamonaviy bosqichda bu yo‘nalish turli metodlarning (muammoli bayon qilish, qisman izlanishli yondashuv) hamda muammolilik darajalarining rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Shuningdek, darsning aniq mantiqiy tuzilmasi (vaziyatni aniqlash, muammoni shakllantirish, gipotezalar ilgari surish, modellarni yaratish, yechimni topish) va psixologik hamda pedagogik omillarni hisobga olish mazkur jarayonning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

O‘zbekistonda ta’lim tizimining chuqur isloh qilinishi, o‘qitishning yangi shakllarining paydo bo‘lishi, turli tipdagi ta’lim muassasalarining tashkil etilishi, shuningdek, ta’lim jarayoni shaxsning intellektual, axloqiy va ma’naviy salohiyatini rivojlantirishga yo‘naltirilganligi – bu jarayonlar barchasi pedagogika fanlari oldiga yangi ilmiy muammolarni qo‘ymoqda**.** Mazkur yo‘nalishlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-farmoni – “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi hujjatda o‘z ifodasini topgan.

Hozirgi bosqichda elektron ta’lim vositalari asosida talabalarning bilish faolligini shakllantirish jarayonini ilmiy asoslash, shuningdek, o‘quv jarayonini zarur o‘quv-metodik materiallar bilan ta’minlash masalasi dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Metodologiya. Nisbatan sekin rivojlanib kelgan ta’lim tizimlari To‘rtinchi sanoat inqilobi davrida katta sinovlarga va o‘zgarishlarga duch keldi. To‘rtinchi sanoat inqilobi – sanoatda raqamli texnologiyalar rivojlanish sababli 21-asrda texnologik, sanoat va ijtimoiy jarayonlarning tez o‘zgarishlarga sabab bo‘layotgan sanoat inqilobi hisoblandi [2]. Bu atama 2015-yilda Jahon Iqtisodiy Forumi asoschisi va ijrochi raisi Klaus Shvab tomonidan ommalashgan.1-jadvalda ta’lim tizimining o‘zgarishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan asosiy omillar va texnologiyalar keltirilgan [3].

1-jadval

Ta’lim tizimlaridagi o‘zgarishlarning asosiy bosqichlari

XVIII asr oxiri	XX asr o‘rtalari	XX asr oxiri	XXI asr boshlari
Ta’lim 1.0	**Ta’lim 2.0**	**Ta’lim 3.0**	**Ta’lim 4.0**
Chop etish uskunalari, yozuv mashinalari va o‘qituvchi o‘quv jarayonining markazida joylashgan ta’lim modeli.	Printerlar va kalkulyatorlar, pochta orqali ta’lim, o‘qituvchi o‘quv jarayonining markazida joylashgan ta’lim modeli.	Kompyuterlar, onlayn ta’lim va “talaba ta’lim markazida” modeli tomon yo‘naltirilish.	Sun’iy intellekt, elektron platformalar va ta’lim jarayonining yakuniy bosqichi sifatida “talaba ta’lim markazida” modeliga to‘liq o‘tish.

Ta’lim 1.0. Talabalar, asosan, berilgan axborot resurslarining iste’molchilari bo‘lib xizmat qiladilar, garchi ular ushbu resurslarga asoslangan faoliyatda ishtirok etishlari mumkin bo‘lsa-da, bu faoliyat ko‘pincha alohida yoki chegaralangan mahalliy guruhlarda amalga oshiriladi. Shu faoliyatning natijalari esa kamdan-kam hollarda talabalar tomonidan foydalanilayotgan axborot resurslarini oshirishga xizmat qiladi [4. Kitts va Schmidt, 2007, 6-§].



1– rasm. Ta’lim 1.0 doirasidagi o‘quv muhiti

Ta’lim 2.0: andragogik va konstruktivistik yondashuv asosidagi o‘qitish va o‘qish. Ta’lim 2.0 o‘qitishda andragogik va konstruktivistik yondashuv xususiyatlarini oladi, bunda faol, tajriba asosida, haqiqiy, muvofiq va ijtimoiy-tarmoq asosidagi o‘qitish tamoyillari, mashg‘ulotlar yoki kurs tuzilmasiga integratsiyalashgan bo‘ladi. Andragogika kattalar ta’limi uchun tavsiflangan bo‘lsa-da, uning asosiy tamoyillari chiqarilib, aksariyat yosh guruhlarini o‘qitishda ham qo‘llanilishi mumkin.



2–rasm. “Ta’lim 2.0” o‘quv muhiti

Ta’lim 3.0: xyutagogik (o‘z-o‘zini o‘qitish) va konnektivistik yondashuvlar asosidagi ta’lim. Ta’lim 3.0 shaxsga yo‘naltirilgan, o‘zini-o‘zi belgilovchi ta’lim tushunchasiga asoslanadi. O‘zini-o‘zi belgilash jarayoni o‘quvchilarning qiziqishlariga tayanadi hamda muammolarni hal etish, innovatsiyalar va ijodkorlikni o‘zida birlashtiradi.



3–rasm. Ta’lim 3.0: talabalar — bog‘lovchi bo‘g‘in, yaratuvchilar va konstruktivistlar sifatida.

Ta’lim 3.0 o‘quv imkoniyatlari bilan tavsiflanadi, bunda o‘quvchilarning o‘zlari umumiy bo‘lib qoladigan bilim artefaktlarini yaratuvchi asosiy ishtirokchilar sifatida muhim rol o‘ynaydilar. Bunday ta’limda ijtimoiy tarmoqlar va ijtimoiy manfaatlar muhim ahamiyat kasb etadi. E’tibor pedagoglar va o‘quvchilar, muassasalar va fanlar o‘rtasidagi chegaralarni yo‘qotgan holdagi ta’limga qaratiladi [5.*Keats&Schmidt,2007,9-§*].

Ta’lim 4.0 ga tub o‘tish – universitetlar, sanoat korxonalari, hukumat va jamiyat o‘rtasida yaqin hamkorlikni, shuningdek sun’iy intellekt, mashina o‘rganishi, katta ma’lumotlar, sun’iy va kengaytirilgan reallik texnologiyalari, buyumlar interneti va robototexnikadan faol foydalanishni nazarda tutadi.



4–rasm. Ta’lim 4.0

Yuqorida tilga olingan raqamli texnologiyalardan tashqari, Ta’lim 4.0 ning asosini kompetensiyaga yo‘naltirilgan yondashuv tashkil etadi, bunda aralash ta’lim texnologiyalari, elektron ta’lim, gamifikatsiya (o‘yinli o‘qitish) va simulyatsiyalardan foydalanish qamrab olinadi.

So‘nggi yillarda Jahon iqtisodiy forumi o‘zining hisobotida ushbu zaruriy pedagogik moslashuvni “Ta’lim 4.0” deb atadi [6]. An’anaviy fan bilimlaridan tashqari, Ta’lim 4.0 modeli o‘quvchilardan uzluksiz o‘rganish, o‘z tushunchasini rivojlantirish va ko‘nikmalar doirasini kengaytirish qobiliyatini talab qiladi. Bunday yondashuvda o‘quvchi nafaqat mavjud bilimlarni o‘zlashtirishi, balki qo‘shimcha bilimlarni qayerdan izlashni, to‘g‘ri savollarni qanday qo‘yishni va olingan ma’lumotlarni tekshirishni ham bilishi zarur.

Bu ta'lim konsepsiyasi o'qitish jarayonini shaxsga yo'naltirilgan, faol va refleksiv o'rganishga asoslaydi, bu esa zamonaviy iqtisodiyotda muvaffaqiyat uchun zarur bo'lgan moslashuvchanlik va tanqidiy tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

Joriy etilayotgan "Ta'lim 4.0" konsepsiyasi O'zbekiston ta'lim tizimini to'rtinchi sanoat inqilobi talablari asosida modernizatsiya qilish yo'lidagi muhim qadamlardan biridir. Ushbu yondashuv zamonaviy texnologiyalar, raqamli yechimlar va innovatsion pedagogik metodlarni ta'lim jarayoniga chuqur integratsiya qilishni ko'zda tutadi.

Natija. Tahlil shuni ko'rsatdiki:

1. Ta'lim 1.0 – 2.0 tizimlarida talaba passiv rol o'ynasa, Ta'lim 3.0 va 4.0 shaxsga yo'naltirilgan va faol o'qitish imkonini beradi.
2. Ta'lim 4.0 raqamli texnologiyalar, elektron platformalar, gamifikatsiya va simulyatsiyalardan samarali foydalanishga asoslanadi.

Xulosa. Mazkur maqolada Ta'lim 1.0 dan Ta'lim 4.0 gacha bo'lgan ta'lim tizimlarining rivojlanish genezisi tahlil qilindi. Ta'lim tizimlarining bosqichma-bosqich o'zgarishi jamiyat taraqqiyoti, texnologik rivojlanish hamda sanoat inqiloblari bilan uzviy bog'liqligi asoslab berildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Ta'lim 1.0 va Ta'lim 2.0 modellarida o'qituvchi markaziy o'rinda bo'lgan bo'lsa, Ta'lim 3.0 va Ta'lim 4.0 bosqichlarida talaba markazida ta'lim modeli ustuvorlik kasb etadi. Xyutagogik va konnektivistik yondashuvlar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarning mustaqil bilim olish, ijodiy fikrlash va muammolarni hal etish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, Ta'lim 4.0 konsepsiyasi doirasida sun'iy intellekt, mashina o'rganishi, katta ma'lumotlar, kengaytirilgan va sun'iy reallik, buyumlar interneti hamda robototexnika kabi zamonaviy raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi ta'lim sifatini oshirishning muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1]. Гражданская защита. Энциклопедия в 4 томах. Том 1 (А-И); под общей редакцией С.К.Шойгу; МЧС России, М., Московская типография № 2, 2006.

[2]. Bai, Chunguang; Dallasega, Patrick; Orzes, Guido; Sarkis, Joseph (1 November 2020). "Industry 4.0 technologies assessment: A sustainability perspective" (en). International Journal of Production Economics 229: 107776.

[3]. Абрамовский А.Л., Абрамовский Д.А., Белоножко М.Л. Образование 4.0 в информационном обществе: возможности, технологии и компоненты, риски и вызовы. А.Л.Абрамовский, Д.А.Абрамовский, М. Л.Белоножко. DOI 10.31660/1993-1824-2025-2-7-20. Известия высших учебных заведений. Социология. Экономика. Политика. 2025, № 2, с. 7–20.

[4]. Китс Д. и Шмидт Дж. (2007). Зарождение и развитие Образования 3.0 в высшем образовании и его потенциал для Африки. Первый понедельник, 12 (3). doi:10.5210/fm.v12i3.1625.

[5]. Keats D., & Schmidt J. (2007). The genesis and emergence of Education 3.0 in higher education and its potential for Africa. First Monday, 12 (3). doi:10.5210/fm.v12i3.1625.

[6]. Паскова А.А. «Образование 4.0» в эпоху цифровой трансформации: перспективы и возможные пути реализации. Вестник Майкопского государственного технологического университета. 2021. Том 13, № 4, с. 100–106. https://doi.org/10.47370/2078-1024-2021-13-4-100-106.

Абдуллаева Лола Тохировна (СамГИИЯ, доцент кафедры «Методики обучения английского языка»)

МЕТОДИКА ИНТЕГРАЦИИ КУЛЬТУРНЫХ КОНЦЕПТОВ В СИСТЕМУ ЗАДАНИЙ ПО АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ

Аннотация. *В статье рассматривается проблема интеграции культурных концептов в систему заданий по английскому языку в контексте формирования межкультурной коммуникативной компетенции обучающихся. Обосновывается актуальность культурноориентированного подхода в условиях глобализации и межкультурного взаимодействия. Анализируются теоретические основы понятия «культурный концепт» в лингвокультурологии и методике обучения иностранным языкам. Предлагается авторская методика интеграции культурных концептов в систему учебных заданий по английскому языку, включающая этапы отбора концептов, проектирования заданий и оценки результатов. Приводятся примеры заданий, направленных на развитие языковой, социокультурной и дискурсивной компетенций.*

Ключевые слова: *культурный концепт, межкультурная коммуникация, английский язык, методика обучения, система заданий, социокультурная компетенция.*